

Minsk-Toshkent yoʻnalishi boʻylab harakatlangan HY-710 reysi haqida rasmiy xabar

2022 11 Aprel

“Uzbekistan Airways” AJ axborot xizmati xabar berishicha, 2022-yil 11-aprel kuni Minsk-Toshkent yoʻnalishi boʻyicha HY-710 reysi 15:39 (Toshkent vaqti bilan) Minsk milliy aeroportidan jadvalga muvofiq aviaqatnovni amalga oshirishni boshlagan.

A320 havo kemasi Rossiya havo hududida boʻlgan vaqtda “Uzbekistan Airways” AJ, shuningdek, Rossiya va Belorussiya aviatsiya xizmatlari xodimlarining e-mail manzillariga anonim manzildan havo kemasida bomba joylashtirilgani haqida maʼlumot yuborilgan.

Havo kemasining yoʻlovchilari va ekipaj aʼzolari xavfsizligini taʼminlash maqsadida, A320 havo kemasi komandiri samolyotni tekshirish va koʻzdan kechirish maqsadida eng yaqin Domodedovo xalqaro aeroportiga qoʻnishga qaror qilgan. Ayni paytda layner, yoʻlovchilar, ularning yuklari, yuk va pochta belgilangan tartibda tekshirildi. Havo kemasining minalashtirilgani haqidagi maʼlumot tasdiqlanmadi.

Yaqin vaqt ichida Minsk-Toshkent yoʻnalishida harakatlangan samolyot oʻz yoʻnalishi boʻylab parvozni davom ettiradi. Havo kemasida boʻlgan 104 yoʻlovchining hayotiga hech qanday xavf yuzaga kelgani yoʻq.

“Uzbekistan Airways” AJ axborot xizmati ommaviy axborot vositalari vakillari va blogerlarga yoʻlovchilar va fuqarolar xavfsizligi toʻgʻrisida ishonchsiz va tasdiqlanmagan maʼlumotlarni tarqatganlik uchun Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qonuniy javobgarlik belgilanganligini eslatib oʻtadi.

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati jurnalist va blogerlar bilan oʻzaro hamkorlik qilishga hamisha tayyor ekanini maʼlum qiladi.